

SHAXLARARO MULOQOTDA ISHONCH HISSINING AHAMIYATI

S. Mirzakamolova ¹

Annotatsiya:

Ishonch muloqot xarakteristikasi bo'lib, u inson shaxsini shakllantiradi va insonlar bilan ishonchli munosabatlarni o'rnatadi. Bu maqolada ishonch tushunchasi va ishonchli suhbatda psixologiya va psixolingvistika xarakteristikasi "ishonch" va "ishonchlilik" kabi yondosh tushunchalar bilan taqqoslab analiz qilinadi. Maqolada shaxslararo muloqotda samimiylig konsepsiyasi borasida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: ishonch, ishonchli suhbat, sadoqat, rostgo'ylik, samimiyat, yoqtirish, ishonchlilik, ishonuvchanlik.

Kirish

Ishonch –har bir insonda bo'lishi kerak bo'lgan xotirjamlik, his-tuyg'u, ruhiy holat hamda insonlarni harakatga chorlovchi kuchdir. Har qanday tirik inson bor ekan, uning nimagadir bo'lgan yoki kimgadir bo'lgan ishonchi bo'ladi va buning ostida qandaydir maqsad yotadi. Har qanday narsaning boshlanishi ishonchga tayanadi.

So'nggi yillarda "ishonch" tushunchasiga va mavzusiga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Bir tomondan bu inson hayotini har qanday jabhada ilmiy asoslab o'rganishga qaratilsa, boshqa tomondan bu tushuncha o'rganishga qiyinligi va kam o'rganilganligi bilan farqlanadi. Bizning nazdimizda, ishonch hissini insonlararo aloqada turli tuman ko'rinishlarda real anglash mumkin, masalan, og'zaki muloqotda, do'stona va qalban suhbat qurganda yoki oilaviy suhbatlarda.

Tadqiqot metodologiyasi

Bunda biz ishonchli suhbatda psixologiya va psixolingvistika xarakteristikasini "ishonch" va "ishonchlilik" kabi yondosh tushunchalar bilan taqqoslab analiz qilamiz. Ishonchli suhbatning verbal yoki noverbal holat markerlarini o'rnatish mumkin hisoblanmaydi. Hammaga ma'lumki, ishonch tushunchasi insonning fundamental holatiga va boshqa insonlar bilan birga ijtimoiy aloqalarining shakllanishi bilan bog'liq.

Ishonch- bir shaxsning boshqa shaxsga nisbatan adolati, haqqo'yligiga, samimiyligiga, vijdonli ekanligiga amin bo'lish. Boshqacha qilib aytganda, insonlar o'rtasidagi o'zaro sadoqat, samimiy munosabatlar ishonch asosiga quriladi. Shunga e'tibor berish kerakki, bu tushunchani talqin etuvchilarning ta'kidlashlaricha, ishonch o'zining murakkabligi bilan keng interpretatsiya qilinadi. V.Yu.Stolyar ishonch ijtimoiy muhit, harakat sharti, ijtimoiy harakatning ichki strukturasi, ijtimoiy muloqotning ichki sabablarini aniqlaydi [1].

Alisher Navoiy inson umrini aziz va mukarram deb biladi. Vaqtni qadrlaydi. Shu bois notiqlik san'ati haqida fikr yuritganda nutqning ishonchli bo'lishini, haqiqat ustuvorlik qilishi lozimligini bosh masala deb qaraydi. Aks holda, tinglovchi]arda zerikish paydo bo'ladi. Bu notiq obro'siga putur yetkazishi tabiiydir. Alisher Navoiy «Voiz uldurki, majlisig'a xoli kirgan to 'lg 'ay va to 'la kirgan xoli bo'lg'ay. Voizkim, bo 'lg 'ay olim va mutaqiy - aning nasihatidin chiqqan shaqiy. Ulki, buyurib o'zi qilmag'ay, hech kimga foyda va asar aning so'zi qilmag'ay. Nazoirxon bila surguvchi maqol - dastyor bila yirlag'uvchi qavvol» deb, yana bir bor notiqlik mahorati fazilatlarini yorqinroq ochib beradi.

Ishonchning ko'p uchraydigan ikkita fundamental belgilari- bular: rostgo'ylik va samimiyat. Adresantning samimiyligi ishonchli muloqot sharti bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqotlar natijasida shu narsa aniq bo'ldiki, ishonch "samimiyat", "amin bo'lish" kabi tushunchalar bilan juda yaqin lekin, eng yaqin tushuncha bu- "sadoqat" ekan. Ishonch va sadoqat tushunchalarining qiyosiy tahlilda psixosotsial fenomen sifatida shunday xulosaga kelindi; qaysiki, ishonch va sadoqatning umumiy ma'nolari bo'lishiga qaramay, ular asosida bir biridan farq qiluvchi xarakteristikalar yotibdi. Ular o'rtasidagi asosiy farq shundaki, ishonch shaxslararo muloqotda o'zining ratsional asosiga ega, lekin sadoqat tushunchasida bu asos yo'q. Ishonch bu e'tiqod tushunchasi bilan bog'liq bo'lib, u insonning hayot tajribasi asosida uning bilimlari, haqiqatlari bilan bog'liq. Sadoqat esa aksincha, qandaydir bilim va tekshiruvlarni talab etmaydi, shunchaki insonning hech qanday dalilsiz ichki ishonchidir.

Ishonch ikkita asosiy fenomen bilan anglashiladi. Ular ya'ni ishonchlilik va ishonuvchanlik. Lug'atlarda bu har ikki so'z turlicha tarjima qilinadi; ishonchlilik-kimgadir to'liq ishonch bilan gapirish; ishonuvchanlik-boshqalarga shubha-gumonsiz to'liq ishonish. Ishonchlilik ishonchli muloqotda so'zlovchi xarakteri bilan uyg'unlashadi.

¹ Mirzakamolova Sadoqatxon Sayidaxmadovna, Namangan Davlat Universiteti doktoranti

Ishonuvchanlik leksemasi-bu inson xarakteridan kelib chiqib, uning soddaligini, boshqa insonlarga so'zsiz, shak-shubhasiz, har qanday yolg'onga ham tezda ishonadigan insonga nisbatan ishlatiladi.

"Ishonchli" leksemasi ko'p xollarda boshqa leksemalar bilan sintagmatik bog'lanib keladi: ishochli suhbat, ochiq ishonchli dialog, ishonchli suhbatlar xakteri, yurakdan va ishonchli gapirish va boshqalar. Demak, bu uyg'unlik shuni ko'rsatadiki, ishonchlilik- bu muloqot xarakteristikasidir.

Ishonch so'zining ko'p qirrali va ko'p ma'noli ekanligini I.V. Glushkoning ilmiy ishida ham ko'rishimiz mumkin. Uning fikricha, ishonch sodiqlik, aminlik, rozilik, hamkorlik, sherikchilik, do'stlik, inoqlik; hisob, xavf-xatar, bashorat, taxmin; rag'bat, tushunish, rozilik, intuitsiya, g'oyibona kuch va oldinda xis qilish kabi boshqa turli sotsiomadaniy va psixologik fenomenlar bilan anglashiladi [2].

Ishonch ijtimoiy-madaniy fenomen bilan o'zida bir nechta qimmatli komponentlarni jamlaydi: munosabatlardagi samimiylik, o'zaro bir-birini tushunish xarakteriga ega o'zaro ijtimoiy aloqa va uning rivojlanishidagi aniq bir dinamizmdir. Ishonch- jamiyatda ijtimoiy o'zaro ta'sir natijasida insonlarning xarakterini aniqlashda o'z-o'zini namoyish qilish orqali aniqlanadigan ijtimoiy tushunchadir [3].

Shu bilan birgalikda, ishonch insonning ijtimoiy guruhga mansubligi, daxldorligi, ehtiyojmand ekanligi belgisi xisoblanadi. A. Maslovning fikricha, ishonch- bu sevgi, xurmat, e'tibor bilan xarakterlanadi [4].

Inson hayotda boshqa bir insonga ishonishiga to'g'ri keladi va u insonlar bilan munosabatda insondan faqat yaxshi natija kutadi, ishonchli bo'lmagan munosabatlardan qochadi [5]. Jamiyatda ishonchsizlik insonlarni bir-biridan uzoqlashtirib, ijtimoiy ishonchni qadrsizlanishiga olib keladi.

Tahlil va natijalar

Darhaqiqat, ishonch insonlar bilan munosabatlardagi asosiy ta'minot elementidir. Insonning ishonchli muloqotga intilishi eng avvalo uning tabiati bilan bog'liq [6]. Ishonchli muloqot zahirida insonning boshqa insonlar bilan iliq, his-tuyg'uga boy munosabatlari yotadi. Boshqa insonga ishonish subyektning o'z munosabatlarini o'zaro davom ettirish yoki ettirmasligini mo'ljallaydi [7].

Ishonchning funksiyalari insonning o'z-o'zini anglash bilan bog'liq psixologik yengillik va psixologik yaqinlikdir [8].

I.V.Antonenko ishonchning to'liq funksiyalarini guruhlariga ajratadi: hamkorlik funksiyasi, hisoblash funksiyasi, kommunikativ funksiya, interaktiv funksiya, perspektiv funksiya, kuchsiz funksiya, boshqaruvchi funksiya, bashorat funksiyasi, mo'ljallovchi funksiya, ta'sirlantiruvchi funksiya, stabilashtiruvchi funksiya, psixologik funksiya, shaxsiy funksiya, umumlashtiruvchi funksiya va fon funksiyasi [9].

Ishonchning bunday keng ma'no mazmuni bir tomondan uning qiyin sotsio- psixologik xarakterga ega ekanligini, boshqa tomondan ishonchning do'stlik, qalban yaqinlik, munosabatlarda ochiqlik kabi ma'nolarni anglash mumkin. Ishonch o'zi bilan birga insonlarning umumiy harakatlarini, o'zaro bir-birini tushunish va hayot haqidagi umumiy qarashlarga ega ekanligini bildiradi. S.V.Gelfanovning fikriga qo'shilgan holda shuni aytish mumkinki, ishonchli munosabatlarning rivojlanib borishi bu suhbatdoshlar o'rtasidagi bir -birini yoqtirish yoki birining boshqasiga yoqishi sabab bo'ladi. Shu narsa xarakterliki, bir-birini yoqtirgan insonlar o'rtasida hamisha qalban bir-birini his qilish va ishonch mavjud bo'ladi [3,o'sha joyda].

Xulosa

Yuqoridagi fikr va mulohazalardan shuni xulosa qilish mumkinki, "ishonch" va "ishonchli suhbat" tushunchalari insonning ruhiy ijtimoiylashuvi aspekti bo'lib, hayotiy va ijtimoiy xarakterga ega. Demak, ishonch yordamida insonlar bir-birlari bilan o'zaro ruhiy jihatdan aloqaga kirishadilar, o'zaro axborot almashadilar, bir-birlariga ta'sir o'tkazadilar, bir-birlarini his qiladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[1]. Столяр, В.Ю. Социально-философский и междисциплинарный дискурс о доверии / В.Ю. Столяр // Известия Российского государственного педагогического университета им. А.И. Герцена. Аспирантские тетради. Научный журнал. - СПб, 2008. - №36 (77). - С. 176-182.

[2]. Глушко, И.В. Диалектика доверия и согласия в социальном дискурсе / И.В. Глушко // Теория и практика общественного развития. - Краснодар: Хорос, 2010. - №2. - С. 44-52.

[3]. Гельфанова, С. В. Феномен доверия в социокультурном развитии общества: автореф. дис. ... канд. филос. наук: 09.00.11 / Светлана Владимировна Гельфанова. - Челябинск, 2007. - 24 с.

[4]. Маслоу, А. Мотивация и личность / А. Маслоу. - СПб.: Евразия, 1999. - 181 с.

[5]. Дворянов, А.А. Социальные функции доверия / А.А. Дворянов // Регион: экономика и социология. - 2006. - №4. - С. 130-140.

[6]. Болдонова, И.С. Межличностное общение / И.С. Болдонова. - Улан- Удэ: Издательство Восточно-Сибирского Государственного технологического университета, 2000. - 67 с.

- [7]. Скрипкина, Т.П. Доверие как социально-психологическое явление: дис. ... д-ра психол. наук: 19.00.05 / Татьяна Петровна Скрипкина. - Ростов-на-Дону, 1998. - 392 с.
- [8]. Сафонов, В.С. О психологии доверительного общения / В.С. Сафонов // Проблема общения в психологии. - М.: Наука, 1981. - С. 264-272.
- [9]. Антоненко, И.В. Социально-психологические функции доверия / И.В. Антоненко // Вестник интегративной психологии. - 2007. - №5. - С. 70-74.